

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11187825>

ЗАМОНАВИЙ САНЪАТ БИЕННАЛЕ ВА ФЕСТИВАЛЛАРИНИНГ АСОСИЙ МАЗМУН-МОХИЯТИ

Shukurov Davronbek Shukurovich

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti mustaqil
izlanuvchisi (PhD)

ABSTRACT

This article discusses the significance of theater, music, film festivals, photography festivals, and art festivals, which are widely celebrated in Uzbekistan at the international level, for further strengthening and developing intercultural communication between countries worldwide.

Keywords: theater, music, film festivals, photography festivals, art, status.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение театральных, музыкальных, кинофестивалей, фестивалей фотографии и фестивалей искусства, широко отмечаемых в Узбекистане на международном уровне, а также их роль в укреплении и развитии межкультурных связей между странами мира.

Ключевые слова: театр, музыка, кино, фотография, искусство, статус.

ANNOTATSINYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda xalqaro darajada keng nishonlanib kelayotgan teatr, musiqa, kinofestivallar, fotosurat festivallari, san'at festivallarining dunyo mamlakatlari o'rtaida madaniyatlararo muloqotni yanada mustahkamlash va rivojlanirishdagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. teatr, musiqa, kinofestivallar, fotosurat festivallari, san'at, maqom.

San'at turlari bo'yicha teatr, musiqa, kinofestivallar, fotosurat festivallari, san'at festivallari – bular hozirgi rivojlanish bosqichidagi san'at festivallarining eng keng tarqalgan shakllaridir [1].

San'at festivallarining san'at turlari bo'yicha bo'linishi mantiqiy tamoyil bo'lib, biror san'at turini yoxud inson faoliyatini juda ko'p xilma-xillikdan alohida ko'rsatish imkonini beradi. Bunday ajratish ba'zan shartli ravishda olib boriladi, chunki boshqa yo'nalishlarga murojaat etmay turib, faqatgina birgina san'at turiga qaratilgan festivallar juda kam uchraydi. Va shunga qaramay, qoida tariqasida, festival nomi ma'lum bir loyiha yo'naltirilgan san'atning ustun turini ko'rsatadi.

Kinofestivallar jahon hamjamiyatida katta qiziqish va mashhurlikka ega. "A"

toifali, ya’ni nufuzli festivallarga Kann, Venetsiya, Berlinale, Toronto kinofestivali va yana bir qancha festivallar mansubdir. Ular jahon miqyosida e’tirofga sazovor bo‘lib, kinematografiya tarixi dunyosida munosib o‘rin egallaydi. Ushbu toifa festivallar tarkibida tanlov dasturlari ham kiritilgan va xalqaro kinoprodwyerlar assotsiatsiyasi federatsiyasi (FIAPF) tomonidan akkreditatsiyalangan. Bunday festivallarda namoyish etiladigan filmlar mashhurlik va e’tirofga sazovor bo‘ladi hamda kinematografiya tarixida alohida o‘ringa egallaydi [2. 228]. Masalan, bular orasida eng radikal va burjua ko‘rinishidagi festival Kann festivalidir. U Yevropa kinematografiyasining eng ilg‘or tendensiyalarini qamrab olish va moda, uslublar, umuman kino rivojlanishining istiqbollarini baholashga imkon beradi. Berlin xalqaro kinofestivali (nemis. Internationale Filmfestspiele Berlin, Berlinale)

1951-yildan beri Berlinda har yili o‘tkazib kelinadigan xalqaro kinofestivaldir. Kann kinofestivalidan farqli ravishda progressiv gaopolitik kinematografiyaga mo‘ljallangan [3. 155]. Xakam festival Jahon kino jarayoni rivojini rag‘batlantirish, badiiy kino ishlab chiqarish darajasini oshirishda kinofestivallarning ahamiyati katta.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ham kino san’ati rivoj topdi. 1996-yilda “O‘zbekfilm” tasarrufida 8 ta kinostudiya, 30 ga yaqin mustaqil ijodiy studiyalar faoliyat yuritdi. 1996-yilda tashkil etilgan “O‘zbekkino” davlat aksionerlik kompaniyasi, uning davlat tomonidan moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi kino san’atining rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1997-yil 22-29 may kunlari XII Xalqaro Toshkent kinofestivali bo‘lib o‘tdi. Unda 32 ta davlat va 8 ta xalqaro tashkilotdan vakillar, kino san’ati ustalari qatnashdi. “Buyuk Amir Temur” filmi ijodkori R.Ibrohimovga festival bosh sovrini – “Neksiya” avtomobili berildi.

Milliy kino san’atining asriy an’alarini saqlash va rivojlantirish, ushbu san’at turi orqali mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik rishtalarini mustahkamlash, xalqaro miqyosda ijodiy hamkorlik ko‘lamini va madaniy aloqalarni kengaytirish hamda ko‘p yillar davomida o‘tkazilib kelingan jahonga mashhur Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tiklash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 7 apreldagi «Kino san’ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-6202-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 1968 — 1997-yillar davomida O‘zbekistonda o‘tkazilib kelingan «Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining Toshkent xalqaro kinofestivali» «Ipak yo‘li durdonasi» Toshkent xalqaro kinofestivali nomi bilan qayta tiklanishi hamda 2021-yildan boshlab har yili sentyabr-oktyabr oylarida Toshkent shahrida o‘tkazilishi belgilandi. «Ipak yo‘li durdonasi» Toshkent xalqaro kinofestivalini o‘tkazishning asosiy maqsadi kino san’ati orqali dunyo mamlakatlari o‘rtasida madaniyatlararo muloqotni yanada mustahkamlash va rivojlantirish, jahon kinoindustriyasi vakillari bilan hamkorlikda qo‘shma kino loyihalari yaratishni kengaytirish, insonparvarlik va bag‘rikenglik, xalqlar do‘stligini targ‘ib qiluvchi, zamonaviy dunyoning madaniy

xilma-xilligini aks ettiruvchi, turli mamlakatlarning eng sara kino san'ati asarlarini yurtimizga jalb qilish, milliy kino san'atini yanada rivojlantirish va xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini oshirish, ushbu san'at turi orqali xalqimizning boy tarixi va betakror madaniyatini dunyoga keng targ'ib etish, xorijlik kino san'ati vakillari bilan hamkorlikda ushbu sohada ilmiy tadqiqot va izlanishlarni amalga oshirish, o'zaro tajriba almashish, taniqli kino namoyandalari ishtirokida konferensiya, davra suhbatlari, taqdimot va mahorat darslarini tashkil etishdan iboratdir. «Ipak yo'li durdonasi» XIII Toshkent xalqaro kinofestivali 2021-yilning 28-sentyabr, 3-oktyabr kunlari «Tinchlik, taraqqiyot va ma'rifat» shiori ostida o'tkazildi.

Toshkentdagagi Gyote instituti xalqaro «Shlingel» (Schlingel, Germaniya) kinofestivali hamda «O'zbekkino» Milliy agentligi bilan hamkorlikda 2014-yildan beri “Shum bola” o'zbek va nemis kinolari festivalini o'tkazib kelmoqda. «Shum bola» o'zbek va rus tillariga dublyaj qilingan «Schlingel» Xemnitz xalqaro kinofestivalining dasturidan eng yangi bolalar va yoshlar uchun mo'ljallangan nemis filmlarini namoyish etadi. Bundan tashqari, bolalar va yoshlar uchun o'zbek filmlari ham namoyish etiladi. Har yili festival Toshkent shahri bilan birga Samarqand (2015-yil) yoki Farg'ona (2016-yil) kabi O'zbekistonning boshqa shaharlarida ham o'tkazib kelingan. Mazkur festival O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasidagi uzoq yillik madaniy-ma'rifiy hamkorlikning amaliy ifodasidir.

Teatr san'ati festivallari zamonaviy teatr jarayonini faollashtirish, zamonaviy dramaturgiya rivojiga ko'maklashish, sahna san'ati sohasida uzoq muddatli ijodiy aloqlar o'rnatish va tajriba almashish maqsadida tashkil etilgan. Teatr san'ati festivallari teatr san'atining turli yo'nalishlarini qamrab oladi: professional va havaskor teatrlar, drama va qo'g'irchoq teatrlari, teatr rassomlari va talabalar teatrlari [4].

O'zbekistonda ham teatr festivallari Mustaqillik yillarda shakllanib, rivojlanib bormoqda.

1997-yil oktyabrdagi Toshkentda bo'lib o'tgan “Teatr: Sharq-Farb” xalqaro festivalda Yaponiya, Hindiston, Gonkong, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya teatr san'atkorlarining chiqishlari bo'ldi. Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan festivalda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston teatrlarining 15 ta eng yaxshi tarixiy sahna asarlari namoyish etildi. O'zbekiston teatr ustalari Germaniya, Fransiya, Slovakiya, Hindiston, AQSH, Bedgiya, Misr, Rossiya teatr festivallarida qiziqarli spektakllar bilan ishtirok etdilar.

2022-yilning 15 martidan 15 mayigacha Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi tomonidan "Xalqaro teatr va balet festivali-2022" tashkil etildi. Unda Moskvaning «Sovremennik» teatri, «Zamonaviy pyesa maktabi», «Teatr natsiy», A.P. Chexov nomidagi Moskva badiiy teatri, Boris Eyfman nomidagi Sankt-Peterburg davlat akademik balet teatri, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri, Mark Vaylning «Ilhom» teatri, O'zbekiston Yoshlar teatri ishtirok etdi. Poytaxt aholisi va mehmonlari xorij san'atning ajoyib namunalarini tomosha qildilar.

Xususan, «Lazgi — qalb va muhabbat raqsi», Sergey Poluninining «Satori» shou-baleti premerasi, «Sovremennik» teatrining «Tong. Oqshom» spektakli, 2014-yilda Fransiyaning bosh teatr mukofoti - Moler mukofoti bilan taqdirlangan, fransuz yozuvchisi va dramaturgi Florian Zellerning «Dada» atipik pyesasi spektakli, Zellerning «O‘g‘il» spektakli, ssenariynavis Ivan Viripayevning “Deli raqsi” pyesasi asosidagi plastik spektakl, «Venetsiyaliklarning yuksak suvi» spektakli, Robert Lepagening «Gamlet» spektakli, Renata Litvinovaning «Shimol shamoli» spektakli, Kafkaning «Metamorfoza» qissasi asosida sahnalahtirilgan «Metamorfoza» spektakli, «Anna Karenina» baleti, “Bir kunlik xonim”, «Roden, uning abadiy ma’budi» [5] kabi spektakllar tomoshabinlar e’tiboriga havola etildi.

Fotosurat festivallari fotosuratning maxsus san’at turi sifatida ma’nosini olib berishga mo‘ljallangan. Amerikalik yozuvchi, tanqidchi va san’atshunos Syuzan Sontag: “Foto – vaqt va borliqning nafis bo‘lagidir. Fotosuratlarni jamlash – dunyon jamlash demakdir” [6], deya fotosuratlarga, fotofestivallarga alohida ahamiyat bergani beziz emas.

Fotosurat festivallari - bu fotosuratchilar uchrashishi, tajriba almashishi, maxsus tayyorlangan ko‘rgazmalarni tomosha qilishi va jahon fotosurati yulduzлari bilan “jonli” muloqot qilishlari mumkin bo‘lgan o‘ziga xos muloqot platformasi. “Festival dasturidagi muhit va voqealar hattoki noprofessionalga ham hujjatli fotosurat olamini tushunish va unga sho‘ng‘ish imkonini beradi, ularning vizual madaniyat darajasini oshirish va juda yorqin shaxslar bilan tanishish imkonini beradi (qoida tariqasida, barcha taklif etilgan ijodkorlar), o‘z ishlarining natijalarini ko‘rshadi, qiziqarli hayotiy tajribaga ega bo‘lishadi, shundan so‘ng odam nafaqat har kuni ko‘rgan fotosuratlariga boshqacha munosabatda bo‘lishni boshlaydi, balki hayotga bo‘lgan munosabatini ham o‘zgartirishi mumkin” [7].

2002-yildan e’tiboran vatanimizda butun dunyodagi fotograflarni doimiy ravishda bir yerga jamlashni boshladi. O‘zbekiston badiiy akademiyasi tashkil qilgan Toshkent xalqaro biyennalesi bunga yaqqol misoldir. Fotobiyennalening asosiy maqsadi keng ommaga turli tendensiyalarni, yangi yo‘nalishlarni, fotosan’atning yangi nomlarini namoyish etish hamda xalqaro madaniy aloqalarni faollashtirish, madaniy munosabatlarni, fotografiya san’ati sohasidagi yutuqlar va an’analarni mustahkamlashdan iborat.

So‘nggi marotaba 2014-yilda o‘tkazilgan VII Toshkent xalqaro Foto Biyennalesi bo‘lib, u “Parallellar. Illyuziya va haqiqat” shiori ostida o‘tkazildi. Ekspozitsiyalar Toshkent va Buxoro shaharlarining 9 ta zamonaviy ko‘rgazma zallariga joylashtirildi. Bu festivalda 30 dan ortiq davlatlar ishtirok etib, 350 dan ortiq fotoustalarning ishlari namoyish etildi. Fotobiyennaleda shaxsiy ko‘rgazmalar, master – klasslar bilan birgalikda tanlov ham o‘tkazildi. Shunday qilib, VII Toshkent xalqaro Foto Biyennalesining gran-prisi O‘zbekistonlik fotosuratchi Farhod Karimovga “Shar ushlagan qiz” asari uchun topshirildi. “Eng yaxshi badiiy fotografiya” nominatsiyasi

Belarusiyalik Andrey Vetrov ijodiga nasib etdi. “Eng yaxshi hujjatli fotosurat” nominatsiyasida shohsupanining birinchi pog‘onasini Zemfira Mahmudova (Ozarbayjon) va qozog‘istonlik Olga Korenchuk zabit etishdi.

Ushbu fotobiyennale 2002-yildan buyon doimiy ravishda har ikki yilda 7 marotaba 2014-yilga qadar o‘tkazib kelingan, ammo shundan so‘ng, bugunga qadar boshqa davom etmadи.

Musiqa festivallari musiqani turli shakllar, uslublar va yo‘nalishlarda san’at turi sifatida taqdim etish imkonini beradi. Musiqa festivallari juda nufuzli va dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida doimiy ravishda o‘tkaziladi: mashhur san’at festivallari Norvegiya, Finlyandiya, Vengriya, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Chexiya, AQSH va Kanadada, Shvetsiya, Fransiya, Estoniya, Rossiya va boshqa ko‘plab davlatlarda o‘tkazib kelinadi. Dunyoda eng mashhur musiqa festivallaridan biri “Glastonberi” (Angliya) bo‘lib, u 1970-yilda o‘tkazila boshlangan. Bugungi kunda Yevropada eng qadimiy mega festivallardan biri sanaladi. Har yili 3 kun davom etadigan ushbu festivalni tomosha qilish uchun 175 ming nafar insonlar tashrif buyuradilar [8]. “Sziget” festivali Vengriyaning Obuda orolida 1993-yildan beri har yili avgust oyida o‘tkaziladi. U shunchaki, oddiy festival emas. Vengriya, Niderlandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Rossiyadan nafaqat musiqani, balki san’atning barcha turlari xush ko‘rvuchilar taklif etiladi. Uni tomosha qilish uchun yarim milliondan ortiq odam tashrif buyuradi [9] 1968-yildan AQSHda har yili o‘tkazib kelinayotgan “Sammerfest” festivali 1999-yilda tashrif buyuruvchilarning soni (800 ming) jihatidan Ginnesning rekordlar kitobiga kiritildi. U 11 kun davomida o‘tkaziladi [10]. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Bu kabi festivallarning har biri o‘ziga xoslikka, alohida rivojlanish va shakllanish tarixiga ega. Aslida ko‘pgina festivallar yosh iqtidorli ijrochilarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan. O‘zbekistonda ham Mustaqillik yillarida bir nechta musiqa festivallari tashkil etilgan va o‘tkazilgan.

1997-yil 11 martda qabul qilingan Respublika hukumatining “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaror musiqa san’atini noyob namunalarini keng targ‘ib qilish, rivojlantirishda dastur amal bo‘lib xizmat qildi. 1997-yil 25 avgust – 2 sentyabr kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan “Sharq taronalari” birinchi Xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatdan ijrochilar, san’atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdi, festivalda yangragan o‘zbek ohanglari, kuy-qo‘sishlari jahon uzra taraldi. Har ikki yilda Samarqandda “Sharq taronalari” Xalqaro festivalini o‘tkazish an’ana tusini oldi. Festival YUNESKO homiyligida o‘tkaziladi.

Tasviriy san’at festivallari muhim va keng tarqalgan hodisa, ya’ni “tasviriy san’at kino, adabiyot, teatrda farqli o‘laroq, deyarli tarjimonlarga muhtoj emas, sof vizual tushunishga murojaat qiladi” [11. 42-44]. Tasviriy san’at festivallariga ta’rif berib, shuni ta’kidlash kerakki, yangi san’at turlarining paydo bo‘lishi va yangi texnologiyalarning rivojlanishi an’anaviy tasviriy san’at ko‘lamini sezilarli darajada

kengaytirdi va shuning uchun ham zamonaviy tasviriy san'at festivallari odatdag'i badiiy ko'rgazmalardan sezilarli darajada farq qiladi.

Festivallarning san'at turlari bo'yicha taqsimlanishini hisobga olsak, shuni ta'kidlash kerakki, ko'plab zamonaviy san'at festivallari o'z oldiga san'atning faqat bitta turini taqdim etish vazifasini qo'ymaydi. San'atning bir qancha turlarini birlashtirgan zamonaviy san'at festivallari tomoshabinning barcha his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazishga intilib, sintetik san'at makonining yangi turini ifodalaydi.

Toshkentda O'zbekiston Badiiy akademiyasida xalqaro tasviriy va amaliy san'at festivali doimiy ravishda o'tkaziladi. Unda Toshkent shahri va boshqa hududlarda ijodkorlar, musavvirlar, xalq amaliy san'ati ustalari, dizaynerlar, haykaltaroshlar ishtirokida ko'rgazmalar, mahorat darslari, ilmiy anjumanlar, yarmarkalar hamda konsert dasturlari tashkil etiladi. Ijodkorlarning, shuningdek, kulolchilik, kashtado'zlik, yog'och o'ymakorligi, kabi san'at yo'nalishlarida ijod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratiladi. San'at bayrami davomida Badiiy akademiya akademiklari, O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zolari, ta'lim muassasalari o'qituvchilari mahorat darslari bilan ishtirok etishadi.

Xalqaro tasviriy va amaliy san'at festivalining asosiy maqsadi milliy san'atimizning o'tmishdan yetib kelgan boy merosi, bugungi salohiyati va eng asosiysi, istiqlol yillarda yetishib kelayotgan ijodkorlarni keng jamoatchilikka yaqindan tanishtirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdir. Har yili o'tkaziladigan bu festival tarixi 2000-yillardan boshlangan. Rassomlar kuni va keyinchalik san'at haftaligi g'oyasining muallifi – rangtasvirchi rassom Jur'at Raxmonovdir. O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi, qator vazirlik va idoralar ko'magida o'tkaziladigan ushbu aksiya 2012-yilda xalqaro miqyosdagi yirik masshtabli loyihaga aylandi. Festival O'zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufidagi barcha ko'rgazma zallarida alohida kuratorlar bilan turli ko'rgazmalar bo'lib o'tadi.

Yurtimizda o'tkazilayotgan xalqaro biyennale va festivallar yurtimizda ilm - fan, san'at va madaniyat, xunarmandchilik sohalarining yanada rivojlanishiga imkon beradi. Bu yerda rassomlar, xalq xunarmandlari, san'at vakillarining tashkilotchilar tomonidan rag'batlantirilishi ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, ma'lum yo'nalishda faoliyat olib orayotgan har bir mutaxassisning o'z ustida yanada ko'proq ishlashiga, o'z sohasini rivojlantirishga, ustoz-shogirdlik ana'nsi orqali shogirdlar yetishtirishga undaydi.

Bu kabi tadbirlar O'zbek milliy san'atini rivojlanishiga targ'ib qilish va uni yanada ommalashtirish, xorijiy xalqaro musiqa festivallari tashkilotlari bilan ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, iqtidorli ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish, o'zbek san'atining barcha yo'nalishlarida xalqaro va respublika miqyosidagi keng rivojlanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pam Korza; Dian Magie. The Arts Festival Work Kit. — Arts Extension Service, 1989.
2. Самутина Н.В. Репрезентатсія европейского культурного сознания в кинематографе последней трети XX века: маданиятшунослик фанлари номзодлиги диссертатсіяси, М., РГГУ, 2002. 228 б.
3. История кино: современный взгляд: киноведение и критика. Мақолалар түплами / тузув. М. Зак; масъул мух. Л. Будяк. М.: Материк, 2004. -155-б.
4. Нагота на сцене. Иллюстрированный сборник статей. - М.: Типо-литография Морского Министерства в Главном Адмиралтействе, 2020
- 5.https://www.inform.kz/oz/toshkentda-halkaro-teatr-va-balet-festivali-b-lib-tadi_a3902429
6. Сонтаг, С. О фотографии / Пер. Виктора Голышева. М.: Ад Маргинем Пресс, 2013.
7. <https://www.kommersant.ru/doc/417556>
8. Shearlaw, John; Aubrey, Crispin. Glastonbury Festival Tales. — Ebury Press (инглиз ва рус тилида), 2005.
9. "Sziget 2018: 9-миллионный посетитель, рекордное количество посетителей фестиваля и последние концерты под дождем" Венгрия сегодня.
10. "Расписание Summerfest, 1968". Журнал Милуоки. Проект «Дети в городской Америке», Университет Маркетт. 14 июля 1968 г.
11. Справочник Арт-Менеджера: Фестивали / Арт-менеджер. 2002. № 2. - с.42-44.